6 BOB

PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK PROFILAKTIKA VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUHIT

6.1. Psixologik-pedagogik skriningning mazmuni va ahamiyati

6.2. Ta’lim muassasasida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni rivojlantirish

6.1. PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK PROFILAKTIK TAHLILNING MAZMUNI VA AHAMIYATI

Direktor pedagogik jamoani xulq-atvordagi xavf omillarini kuzatish mezonlari bilan tanishtiradi, ma'lumotlardan foydalanish chegaralarini belgilaydi va zarur hollarda bolani pedagog-psixolog yoki tegishli mutaxassisga yo'naltirish tartibini tasdiqlaydi.

Mazkur mavzuda pedagogik kuzatuv, ehtiyotkor skrining, sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitni baholash, ma'lumotlarni himoya qilish va individual yordamni tashkil etish yondashuvlari bayon etiladi.

O'quvchining xulq-atvoridagi xavotirli o'zgarishlarni aniqlashning asosiy usullaridan biri - psixologik-pedagogik kuzatuvdir.

Bunda pedagoglar quyidagi mezon va belgilarni inobatga oladi.

1-mezon.

O'quvchining odatiy xulq-atvoridagi xavotirli o'zgarishlar:

- kayfiyatning o'zgarishi, tushkunlik, loqaydlik;
- o'qishga qiziqishning so'nishi, maktab hayotidan chetlashish;
- dars qoldirish, talab va qoidalarga befarqlik;
- zo'ravonlik, kamsitish yoki xavfli kontentga berilish;
- boshqalarning huquqi va xavfsizligiga zarar yetkazuvchi g'oyalarni muntazam qo'llab-quvvatlash.

2-mezon.

O'quvchining individual va emotsional xususiyatlari:

- xavotirchanlik;
- tez ranjish;
- tushkunlikka moyillik;
- salbiy kechinmalarni ichida saqlash;
- dushmanlik yoki agressivlik.

3-mezon.

O'quvchining ijtimoiy muhiti:

- tengdoshlar tomonidan kamsitish, zo'ravonlik yoki bulling;
- oilada nazorat va qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi;

- kattalar bilan munosabatdagi sovuqlik yoki masofa;
- oilaviy notinchlik, jumladan, ota-onaning ajrashishi.

Muhim

Sotsiometrik tadqiqot sinfdagi o‘zaro munosabatlar, norasmiy yetakchilik, o‘zaro tanlov va muloqotdan chetda qolish xavfini o‘rganishga yordam beradi. Natijalar o‘quvchiga “chetlatilgan” yoki “izolyatsiyalangan” kabi yorliq qo‘yish uchun ishlatilmaydi.

SOTSIOMETRIK TADQIQOT UCHUN NAMUNAVIY SAVOLLAR

5–8-sinf o‘quvchilari uchun:

Sinfdoshlaringdan kim bilan darsdan tashqari vaqtda ko‘proq muloqot qilasan?

Sinfdoshlaringdan kimdan shaxsiy masalang bo‘yicha yordam so‘rarding?

9–11-sinf o‘quvchilari va professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun:

Sinfdoshlaringdan kim bilan darsdan tashqari vaqtda ko‘proq muloqot qilasan?

Sinfdoshlaringdan kimdan shaxsiy masalang bo‘yicha yordam so‘rarding?

Sinfdoshlaringdan kim bilan kamroq muloqot qilasan, lekin ko‘proq muloqot qilishni istarding?

Sotsiometrik tadqiqot sinfdagi hamkorlik tarmog‘ini, muloqotdan chetda qolayotgan va qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlashga muhtoj o‘quvchilarni aniqlashga yordam beradi.

Psixodiagnostik metodika va individual psixologik yordam qonunchilikda belgilangan tartibda, maqsad va ma’lumotlardan foydalanish doirasi tushuntirilgan holda amalga oshiriladi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollardan tashqari, o‘quvchi va uning qonuniy vakilining roziligi olinadi; maxfiylik ta’minlanadi.

Natijalar faqat o‘quvchiga yordam ko‘rsatish, sinf muhitini yaxshilash va profilaktik ishlarni rejalashtirish uchun qo‘llaniladi. Individual natijalar pedagogik jamoa yoki ota-onalar yig‘ilishida oshkor etilmaydi.

Sinfda tarbiyaviy va psixologik-pedagogik tadbirlar tashkil etiladi. Bunday ishlar xavf omillarini kamaytirish, salbiy holatlarning oldini olish va sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni mustahkamlashga qaratiladi.

Xulq-atvorida xavotirli o‘zgarish kuzatilgan o‘quvchi bilan individual yordam rejasi asosida ishlanadi. Rejada maqsad, tadbir, mas’ul, muddat, tashqi xizmatga yo‘naltirish zarurati va qayta baholash sanasi ko‘rsatiladi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning psixologik holatini o‘rganish, ularni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash hamda xavf omillarini erta aniqlash ishlari umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish tartibi asosida amalga oshiriladi.

Mazkur faoliyat o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning ijtimoiy moslashuvi, xulq-atvori, emotsional holati va ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklarini aniqlashga qaratiladi .

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasining “Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risida”gi Qonuni giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va boshqa zararli qaramlik holatlarining oldini olish, shaxsning sog‘lig‘i va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni belgilaydi. Voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq holatlarda tibbiy aralashuv, maslahat va yordam ko‘rsatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida psixologik-pedagogik kuzatuv, profilaktik suhbatlar, ota-onalar bilan ishlash, pedagogik jamoa bilan hamkorlik va zarur hollarda tegishli mutaxassislarni jalb etish ishlari o‘quvchining manfaatlari, xavfsizligi va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash tamoyillari asosida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasida ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari va ta’lim tashkilotlarining profilaktikadagi vakolatlari belgilangan.

Profilaktik tadbirlar natijalariga ko‘ra pedagog-psixolog, pedagog xodimlar va sinf rahbarlari vakolati doirasida quyidagi ish shakllaridan foydalaniladi:

Guruhli ish shakli. Sinf yoki guruhda sog‘lom munosabat, ijtimoiy-emotsional ko‘nikma, raqamli xavfsizlik va yordam so‘rash madaniyatini rivojlantiruvchi kompleks tadbirlar tashkil etiladi.

Individual ish shakli. Xulq-atvorida barqaror yoki keskin o‘zgarish kuzatilgan o‘quvchi bilan maqsadli baholash, maslahat, psixologik-pedagogik yordam, zarur hollarda mutaxassisga yo‘naltirish va monitoring amalga oshiriladi.

6.2. TA’LIM MUASSASASIDA IJOBIY IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUHITNI RIVOJLANTIRISH

Sinf yoki guruhdagi pedagogik kuzatuv, ehtiyotkor skrining va ijtimoiy-psixologik muhitni o‘rganish natijalari umumlashtirilgan shaklda tahlil qilinib, guruhli profilaktika tadbirlarini rejalashtirishda qo‘llaniladi.

XULQ-ATVORDAGI XAVF OMILLARINING OLDINI OLISHGA QARATILGAN GURUHLI TADBIRLAR YO‘NALISHLARI:

1. Shaxsiy-psixologik himoya omillarini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar.

Bular o‘quvchilarda maqsad qo‘yish, o‘zini boshqarish, emotsiyalarni nazorat qilish, muloqot qilish, mustaqil qaror qabul qilish va sog‘lom o‘ziga baho berish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- maqsad qo‘yish va natijani oldindan ko‘ra bilish bo‘yicha dasturlar;
- ishonchli rad etish va mustaqil pozitsiyani shakllantirish mashg‘ulotlari;
- refleksiya, dalillash, munozara va debat ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- xavotir, qo‘rquv, aybdorlik, g‘azab va ranjish kabi hissiyotlarni tanish hamda xavfsiz boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning qiziqishi, iste’dodi va sevimli mashg‘ulotlarini namoyon etishga imkon beruvchi loyihalar.

2. Ijtimoiy-muhit himoya omillarini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar.

Bular ota-onalar, pedagoglar va tengdoshlar bilan ishonchli munosabatlarni mustahkamlash, ijtimoiy faollik va jamoaviylikni rivojlantirishga qaratiladi.

Bunda quyidagi ishlar tashkil etiladi:

- jamoada ishonchli munosabatlarni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;
- kommunikativ va tashkilotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha treninglar;
- ota-onalar klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- ota-onalarning psixologik-pedagogik savodxonligini oshirish;
- o‘quvchilarni umummaktab tadbirlari, ijodiy tanlovlar, sayohatlar va ijtimoiy loyihalarga jalb etish;
- sport tadbirlari va qiziqishlar bo‘yicha to‘garaklarda ishtirok etish uchun sharoit yaratish;
- ustoz-shogirdlik tizimidan foydalanish;

- muzey, teatr, kinoteatr va madaniy maskanlarga tashriflarni tashkil etish;
- kinoklub, kitobxonlik klubi, amaliy ijodiy to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- intellektual o‘yinlar, viktorinalar, sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy faollik mavzusidagi tanlovlarni o‘tkazish.

Muhim

O‘quvchilar bilan guruhli ishlarning asosiy vazifalaridan biri - sinf, guruh va butun maktab jamoasida qulay ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishdir.